

## ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI

**Djaksilikova Aygerim Bakitjan qiz**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar fakulteti Qozoq tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyot o'qitish metodikasining asosiy tamoyillari-bu mavzu doirasida biz ta'lim tamoyillari ularni tashkil qilish jarayoni, o'rni va bu tamoyillarning umumiy tasnifi, adabiyot o'qitishda yetakchi tamoyillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Asosan, bu tamoyillarning eng muhimi eng keraklisi ta'lim tamoyillari bo'lib, "tamoyil", "prinsip" so'zi lotinchi so'zdan olingan bo'lib, "principum" ya'ni negiz, boshlang'ich ta'lim - degan ma'nolarni anglatadi.

**Kalit so'zlari:** Ta'lim tamoyillari, ilmiylik, tushunarlik, izchillik, ko'rgazalilik, prinsiplilik,

Ta'lim shaklini tashkil etishda tayanadigan eng muhim qoida va mezonlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Tamoyillar, o'qitish jarayonida pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil qilish ehtiyoji natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonni tashkil qilish tamoyillari bir-necha guruhlarga bo'linadi.

-ivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya tamoyili;

ta'limning hayot bilan bog'liqligi; ta'limning tushunarlikligi;

ta'limning ilmiyligi va ongliligi;

ta'limning izchilligi va uzviyligi; o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ijodiy faolligi tamoyili;

ta'lim jarayonida o'qishlarning mustahkam bilimga ega bo'lish tamoyillari;

Bu o'quvchilarni o'qitishning va darsni tashkil qilishning eng asosiy tamoyillari deb aytishimiz mumkin. Ta'limda bundan tashqari, yuqoridagi tamoyillar bilan uzviy bog'liq holda va pedagoglar uchun amal qilishi shart bo'lgan yana muhim tamoyillar ham bor. Ya'ni,

-o'qitishda tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi tamoyili; ilmiylik, prinsiplilik, tizimlilik tamoyili;

ta'limni nazariya ta'limning amaliy hayot bilan bog'lash tamoyillar;

onglilik va faollik tamoyili; ko'rgazmalilik tamoyillaridir.

"Ta'lim kechimida mana shu tamoyillarga rioya qilinishi shart. Ammo predmedarning mazmuniga, o'quvchi laming yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda tamoyillarning nisbati hamdamazmuni ma'lum darajada o'zgaradi. Masalan, ko'rsatmalilik tamoyili tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalami namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatik jadvallarni ko'rsatish, darstaxtaga yozish, chizmalar chizish vahokazolardan iborat bo'ladi. Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash tamoyillariga amal qilish, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni tajribada, hayotda qo'llay olish zarur".[1]

Ta'lim jarayonida, o'quvchilarga, talabalarga yosh avlodga ta'lim berishda yuqoridagi tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, o'qitishda ularning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda tamoyillarni ham ma'lum

darajada o'zgartirishimiz mumkin. Adabiyot darslarini tashkil etishda asosan, o'quvchini ezgu ma'naviyatli shaxsi sifatida shakllantirish uchun ta'limning "dars tartibini o'zgartirish tamoyilli" yetakchilik qiladi. Bunga ko'ra darslarni an'anaviy usulda yoki noan'anaviy usulda tashkil qilish, uy vazifalarni so'rash va uni mustahkamlash yangi dars bayonini berish kabi kabilarni o'z ichiga oladi.

Shu jumladan, o'quvchilarni dars jarayonida yanada faol ishtirokiga erishish va ularni bilimlarini tekshirish uchun bahs-munozarali savollar berib, ularni mustaqil ishlarini ta'minlash yoki mustaqil fikrlashga o'rgatish ham asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilarga uy vazifalarni berishda ham bu jahatlarga ya'ni, ularni mustaqil fikrlashni va ijodiy ishlashni talab qiluvchi vazifalar berilishi kerak. O'qishning hayot bilan aloqadorligi tamoyilida shuningdek, an'anaviy va noan'anaviy ta'limda darslarning hayot bilan aloqadorligini ta'minlashga o'rgatish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Bu usulda o'qituvchi, yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar, vazifalari bilan darsga rahbarlik qiladi. Ta'limni hayot bilan to'laqonli aloqasi o'qitishning tashkiliy jihatlari va metodlari o'rtasida uzviylikni talab qiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimlarini ixtiyoriy ravishda o'zlashtirishlariga yo'naltirish va ularni erkin fikrlashga, o'z fikrlarini bemalol ayta olishga yo'naltirish bo'yicha ham bir qancha ishlab chiqilgan Ya'ni, bulardan birinchisi; -o'quvchi shaxsni ustuvor mavqega ko'tarish ya'ni bunda pedagogika uchun tarbiyalanuvchilarning toza ko'ngilli va ruhan yaxshiliklarga moyil shaxs bo'lib yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun sinfdagi har bir o'quvchi o'z tabiati, iqtidori, qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlari bilan bir-biridan ajratib ajralib turadi. Ularning hech biri ikkinchisini takrorlamaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarni o'ziga xos qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni yuzaga chiqarishga yordam berish har bir mutaxassisning va o'qituvchilarning vazifasidir.

Ma'naviyat ustuvorligini ta'minlash tamoyili ham mavjud bo'lib, bunda, bilamizki maktabda 20 dan ortiq fanni fan o'qitladi ularning ko'pchiligi turli sohalarga bo'linib ketgan. Masalan: o'quvchilarga ko'p bilim beradigan fanlardan (matematika, fizika, va hokazo) fanlar ya'ni tabiiy, gumanitar, aniq fanlarni kiritishimiz mumkin. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha (mehnat, chizmachilik) darslari o'tladi. Ayrim o'quvchilarning jisimiy rivojiga esa jismoniy tarbiya darslari ham xizmat qiladi. Ammo, o'quvchilarni ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ko'nglini yaxshiliklarga undovchi inson qilib yetishida bizga adabiyot, tasviriy san'at va musiqa darslari juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Adabiyot darslarida, badiiy so'z yordamida o'quvchi so'zdan ta'sirlanish, uni tuyish va undan bahra olishga o'rgatish orqali inson shaxsiyatida go'zal sifatlar, ijobiy fazilatlarini tarbiyalash mumkin hisoblanadi. Bevosita, badiiy asarlarni o'rgatish ularni tahlil qilish, she'r matnlarni yod oldirish va ularni birma-bir tahlil qildirish ma'nosini tushuntirish orqali ham shakllanadi. "O'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi esa: «...o'z manfaatini o'zgcilar mcinfaatiga qarshi qo'yimaslik, o'zinikini afzal bilmaslikdir. Boshqqlarning ham o'zi singari inson ekanini his qilish va ularga daxl qilmagan, halal bermagan holda birgalikda yashay bilish san'atidir. Sog'lorn ma'naviyat - o'zni yengmoq, o'zning isiagu mayillarini jilovlay bilmoq, ayni vaqtda o'zlikni tanimoqdir. Sog'lom ma'naviyat xudbinlikni yenga bilmoqdir, makonda lurib makoniy manfaatlardan, zamonda yashab zamoniy luslanaverishlardan balandroq tura olmoq demakdi".[2]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiyot o'qitish metodikasida yana bir shunday ta'lim tamoyili borki, bu tarbiyalanish va bilim olishda o'quvchining o'z ishtirokini ta'minlash hisoblanadi bunday o'quvchining ma'naviy kamolotini ta'minlash maqsadida badiiy asar tahlili jarayoni yoki matn hikoya tahlili roman-tahlili yoki sher tahlili beriladi. Bunda o'quvchilar qahramon shaxsi xatti-harakati uning xursandchiligi, xafachiligilarini muhokama qiladilar va o'z fikrlarini aytadilar. Bu juda to'g'ri yo'l hisoblanadi. Sababi o'quvchilarni shunday o'qib kelgan asarni xuddi o'zini aytib berishi

emas, balki ularni ularga o'z xulosasini bildirishi o'z fikrlarini bildirishi bu ularning ma'naviyatini shakllanishi o'zini-o'zi tarbiyalashda muhim yo'l chiqadi.

**Литературы :**

1. O'zbek pedagogik ensiklopedik so'zligi. (Q. Yo'ldosh, U. Dolimov, Q. Husanboyeva, A. Sulaymonov, M. YoMdosheva, O. Safarov.) - T.: Chashma print, 2014. 446-bet.
2. Yo'ldoshev Q. O'zlikni tanish - Allohni tanishdir. // «Tafakkur» jumali, 1996- yil 4-son. 22 - 27-betlar.